



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Urozov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Urozov Komil Bahromovich</i>	122
34	ПРИМЕНЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННОЙ БАЗЫ И ИНТЕРНЕТ РЕСУРСОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ТЕМАТИКИ «СТАТИСТИКА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛИ» <i>Сиддиков Алишер Журакулович, Зокирова Муниса Жамолiddин қизи</i>	125
35	TA'LIM SIFATINING MEHNAT BOZORIDAGI BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRI <i>Hamroyeva Dilso'z Yahyo'yevna, Ro'ziyeva Shaxruza Sherali qizi</i>	131
36	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING NAZARIYASINI SHAKLLANISHI <i>Isakova Naima Ikromjonovna</i>	134

37	O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI <i>Qosimova Hilola Jamshedovna</i>	138
38	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INSURTECH TEXNOLOGIYALARINING SUG'URTA BOZORI RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI <i>Xakimzoda Maftuna, Yusuf qizi</i>	143

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



O'ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASI ASOSIDA MINTAQAVIY SANOATLASHUVNI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI

Qosimova Hilola Jamshedovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi, (PhD)
E-mail: hilolakasimova1110@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Hududlarning iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari, mehnat resurslari va infratuzilma imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishning ustuvor yo'nalishlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida mintaqaviy sanoatlashuv samaradorligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, mintaqaviy sanoatlashuv, sanoat siyosati, hududiy rivojlanish, innovatsiyalar, yashil iqtisodiyot, sanoat klasterlari, investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, infratuzilma.

Abstract: This article examines the specific features of implementing regional industrialization in Uzbekistan based on the sustainable development strategy. The study analyzes the effective utilization of regional economic potential, natural and labor resources, and infrastructure capacities to promote industrial development. Particular attention is given to industrial modernization, the adoption of innovative technologies, environmental sustainability, and the reduction of interregional economic disparities. Based on the research findings, practical recommendations are proposed to enhance the efficiency of regional industrialization and ensure sustainable economic growth.

Keywords: sustainable development, regional industrialization, industrial policy, regional development, innovation, green economy, industrial clusters, investment, economic growth, infrastructure.

Абстрактный: В данной статье исследуются особенности реализации региональной индустриализации в Узбекистане на основе стратегии устойчивого развития. Проанализированы вопросы эффективного использования экономического потенциала регионов, природных и трудовых ресурсов, а также инфраструктурных возможностей для развития промышленного производства. Особое внимание уделено модернизации промышленных отраслей, внедрению инновационных технологий, обеспечению экологической устойчивости и сокращению межрегиональных экономических различий. На основе проведенного исследования разработаны практические рекомендации по повышению эффективности региональной индустриализации и обеспечению устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: устойчивое развитие, региональная индустриализация, промышленная политика, региональное развитие, инновации, зеленая экономика, промышленные кластеры, инвестиции, экономический рост, инфраструктура.

Kirish (Введение/Introduction).

Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakat sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda respublika viloyatlari, jumladan, ulardagi shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. So'nggi yillarda "mamlakatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari turlarini kengaytirish orqali aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirish" ga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilib, mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish chora-tadbirlari sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni maxalliyashtirish asosida hududiy ixtisoslashuv dasturlari bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirilib kelinmoqda.

Jahonda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuv borasida turli mamlakatlar iqtisodiyotida ekologik standartlarga mos keladigan yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish orqali global qo'shilgan qiymat zanjirida milliy sanoatning ulushini oshirishga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, "global sanoat ishlab chiqarishida yaratilayotgan qo'shilgan qiymat hajmida Xitoy, AQSh, Yaponiya va Germaniya kabi mamlakatlar yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Jumladan, sanoat sohasida yaratilayotgan yalpi global qo'shilgan qiymat hajmining 30,9 foizi birgina Xitoy hissasiga to'g'ri kelib, mamlakat sanoat ishlab chiqarishida raqamli transformatsiyalashuv, hamda robotizatsiya darajasi nisbatan yuqoriligi bilan xarakterlanadi".

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy sanoatlashuv borasidagi islohotlarining ustuvor yo'nalishlari respublik viloyatlari, jumladan, ulardagi shahar va tumanlarning ishlab chiqarishini rivojlantirishda ularning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, innovatsion faollikni ta'minlash, mahsulot ishlab chiqarish zanjirini to'liq o'zlashtirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. So'nggi yillarda "mamlakatda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari turlarini kengaytirish orqali aholining iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojini samarali qondirish"ga qaratilgan islohotlarga ustuvorlik qaratilib, mintaqaviy sanoatlashuv borasidagi chora-tadbirlari sanoat mahsuloti ishlab chiqarishni maxalliyashtirish dasturlari bilan uzviy aloqadorlikda amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu holat mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish jarayonlari samaradorligini oshirishning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Barqaror rivojlanish va mintaqaviy sanoatlashuv masalalari so'nggi yillarda iqtisodiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, sanoatlashuv iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lib, uning barqaror rivojlanish tamoyillari asosida amalga oshirilishi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik maqsadlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi [1].

BMT ekspertlarining ta'kidlashicha, 2030-yilgacha bo'lgan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda sanoat infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va inklyuziv sanoatlashuvni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi [2]. Shu sababli ko'plab davlatlarda hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishga asoslangan mintaqaviy sanoat siyosati ishlab chiqilmoqda.

Mintaqaviy rivojlanish nazariyalariga bag'ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda sanoat klasterlari hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida e'tirof etilgan. Tadqiqotchilar klasterlashuv korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, innovatsiyalarni jadallashirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini qayd etadilar [3].

Jahon banki mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda sanoatlashuv jarayonlarida transport-logistika infratuzilmasi, energetika ta'minoti va investitsion muhitning roli alohida ta'kidlangan. Ularning fikricha, hududlarda zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi investitsiyalar oqimini ko'paytirib, sanoat ishlab chiqarishining barqaror o'sishini ta'minlaydi [4].

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi sanoat rivojlanishining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ilmiy adabiyotlarda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sanoat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida ko'rsatilgan [5].

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda hududlarning sanoat salohiyatidan foydalanish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish masalalari keng yoritilgan [6].

Mamlakatda amalga oshirilayotgan sanoat siyosati bo'yicha tadqiqotlar natijalari sanoat zonalari, texnoparklar va erkin iqtisodiy zonalarining hududiy rivojlanishni jadallashirishdagi ahamiyatini ko'rsatmoqda. Mazkur mexanizmlar investitsiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim vosita hisoblanadi [7].

Iqtisodiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish mintaqaviy sanoatlashuv samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Sanoatning raqamli transformatsiyasi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi [8].

Shuningdek, ilmiy manbalarda O'zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda hududlarning ixtisoslashuvi, resurs salohiyati va investitsion jozibadorligini hisobga olgan holda sanoat siyosatini shakllantirish zarurligi ta'kidlanadi [9]. Bu esa mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish va uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini barqaror rivojlanish, mintaqaviy iqtisodiyot va sanoatlashuv nazariyalari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Mintaqaviy sanoatlashuvning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida O'zbekiston hududlarining sanoat salohiyati, investitsion faolligi va infratuzilma imkoniyatlari bo'yicha ilmiy manbalar hamda statistik ma'lumotlar o'rganildi. Shuningdek, barqaror rivojlanish tamoyillari asosida sanoat tarmoqlarini rivojlantirishning xalqaro tajribalari tahlil qilindi.

Tadqiqotda mantiqiy umumlashtirish va iqtisodiy tahlil usullari yordamida mintaqaviy sanoatlashuvga ta'sir etuvchi omillar baholanib, hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi. Mazkur yondashuv mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti shakllanishining dastlabki yillarida mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishda mahsulot ishlab chiqarish zanjirini to'liq o'zlashtirish maqsadida maxalliy ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sanoat kooperatsiyalarini tashkil etish, ular o'rtasida o'zaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish orqali integratsion sanoat birlashmalari shaklidagi tayyor mahsulotlar, jumladan, butlovchi qismlar va materiallarni ishlab chiqarishni maxalliyalashtirishga qaratilgan davlat dasturlari doirasida amalga oshirilishi belgilab berildi. Bu turdagi chora-

tadbirlarni davlat tomonidan tartibga solishda "Sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyalashtirish dasturini shakllantirish, amalga oshirish va hisobot tizimini yuritio' hamda ushbu jarayonda davlat boshqaruvi organlari va loyiha tashabbuskorlarining o'zaro hamkorlik qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomi ishlab chiqilishimazkur sohadagi yagona qonunchilikni shakllantirishga qo'yilgan dastlabki qadamlardan bo'ldi. Nizomga muvofiq, mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishi bilan maxalliyalashtirish dasturlari erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tashkil etish orqali o'zaro mutanosiblikda amalga oshirili belgilab berildi.

Shuningdek, hukumat tomonidan tashkil etilgan maxsus ishchi guruh tomonidan Yangi O'zbekiston iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki yillarida mamlakatda ilgari tashkil etilgan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatiga xos bo'lgan quyidagi muammolar mavjud ekanligi aniqlandi:

– birinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududlarida joylashtirish uchun loyihalarni tanlashning aniq mezonlari mavjud emasligi. Investitsiya loyihalarini ko'rib chiqishda yangidan tashkil etilayotgan ish o'rinlari soni, salohiyatli xorijiy sherik va investormamlakatning mavjudligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ichki va tashqi bozorlarda talab qilinishi, eksport hajmi, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyalashtirish darajasi hisobga olinmasligi;

– ikkinchidan, erkin iqtisodiy zonalar hududida joylashtirish va amalga oshirish uchun taklif etilayotgan investitsiya loyihalarini kelishib olish va ma'qullash mexanizmi amalda haddan tashqari murakkab byurokratizmga uchragan, bu esa mazkur loyihalar bo'yicha qarorlar qabul qilishni qo'p oylarga cho'zib yuborilishi;

– uchinchidan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari uchun zarur muhandislik-kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasini o'z vaqtida barpo etish masalalariga yetarlicha e'tibor berilmasligi;

– to'rtinchidan, taklif etilayotgan investitsiya loyihalarining ishonchli moliyaviy manbalari, shu jumladan, mahalliy va xorijiy kredit resurslari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobiga ishonchli ta'minlanishi mufassal ishlab chiqilmagan. Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari birlashtirilgan tijorat banklari ushbu muammolarni hal etishda sust ishtirok etishi;

– beshinchidan, erkin iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari Respublika tovar-xomashyo birjasi orqali sotiladigan xomashyo resurslarini zarur hajmda sotib olishda kattagina qiyinchiliklarga duch kelishi;

– oltinchidan, erkin iqtisodiy zonalarning hududida foydalanishga topshirilgan korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan nihoyatda samarasiz foydalanilmoqda, buning oqibatida ishlab chiqarish va eksport hajmlari hamda ish joylari soni tasdiqlangan biznes-rejalar parametrlariga mos kelmasligi;

– yettinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raising birinchi o'rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining iqtisodiyot va tadbirkorlik masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosarlari rahbarligida erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha tashkil qilingan hududiy komissiyalar tomonidan joylarda yuzaga keluvchi masalalarni tezkorlik bilan hal etish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirishning ta'sirchan mexanizmi mavjud emasligi"

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni o'z vaqtida samarali hal etilishi uchun hukumat tomonidan quyidagi amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqildi:

– erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tashkil etish to'g'risidagi nizom ishlab chiqildi;

– erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari faoliyat yuritayotgan sanoat ishlab chiqarishi korxonalariga soliq imtiyozlari berish tartibi o'rnatildi;

– tijorat banklari tomonidan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari maxalliyalashtirish va ixtisoslashuv dasturlari doirasida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan korxonalar uchun imtiyozli kreditlar ajratish bo'yicha tijorat banklari faoliyati takomillashtirildi;

– mazkur hududlarga investitsiya kiritish bo'yicha tegishli imtiyozlar paketi ishlab chiqildi;

– sanoat korxonalarini faoliyatini erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari tashkil etish uchun yer uchastkalari ajratish me'yorlari o'rnatildi va h.k

Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti shakllanishining dastlabki bosqichidayoq mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirishda sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish bilan maxalliyalashtirish dasturlarini erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari

tashkil etish amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida quyidagi sanoat zonalarini tashkil etilishiga erishildi:

- Sirdaryo viloyati Yangiyo'l shahrida kichik sanoat zonasi;
- Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek, Olmazor, Uchtepa, Chilonzor va Bektemir tumanlarida kichik sanoat zonalarini;
- Toshkent viloyatining jami 17 ta tuman va shaharlarida kichik sanoat zonalarini;
- Jizzax viloyatining Dashtobod shahrida kichik sanoat zonasini tashkil etish asosida umumiy qiymati 716,5 mlrd. so'mlik jami 28 ta loyiha amalga oshirildi;
- Xorazm viloyatining Urganch shahri hududida jami 5 ta hududda kichik sanoat zonalarini;
- Samarqand viloyatining 10 dan ortiq tuman va shaharlarida kichik sanoat zonalarini tashkil etilib, ular infratuzilmsi rivojlantirildi;
- Surxondaryo viloyatining 9 ta tuman va shaharlarida jami 10 ta kichik sanoat zonalarini;
- Qashqadaryo viloyatining 7 ta tuman va shaharlarida 10 ta kichik sanoat zonalarini;
- Namangan viloyatining Namangan shahri, Namangan, Chust, Norin, To'raqo'rg'on tumanlarida 9 ta kichik sanoat zonalarini;
- Buxoro viloyatining 5 ta shahar va tumanlarida jami 10 ta kichik sanoat zonalarini;

- Farg'ona viloyatining Dang'ara tumani, Marg'ilon va Quvasoy shaharlarida 4 ta qo'shimcha kichik sanoat zonalarini faoliyati tashkil etildi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirishda hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlarini texnik-texnologik jihatdan rivojlanishini ta'minlash maqsadida zamonaviy texnoparklar hamda maxsus sanoat "xab"lari faoliyati yo'lga qo'yildi. Jumladan:

- Andijon viloyatining 105 gektar yer maydonida maxsus sanoat zonasi sifatida "Mashinasozlik va elektrotexnika sanoat xabi";
- Toshkent viloyatida "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki;
- 30 yil muddatga "Nukus" erkin iqtisodiy zonasi hududidagi 30 gektar bo'sh yer maydonida "Nukus texnoparki";
- Toshkent viloyati Ohangaron tumanida mis va noyob metallarni qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratilgan "Eltech Industrial" texnoparki;
- Toshkent shahrida 4 ta ishlab chiqarish maydoni, 4 ta biznes inkubator, 8 ta startap akselerator, 12 ta kovorking markazlaridan tashkil topgan «Inno» innovatsion o'quv-ishlab chiqarish texnoparki (2023-2026 yillarda Buxoro, Jizzax, Nukus va Namangan shaharlarida ham bu turdagi texnoparklar faoliyatini tashkil etish rejalashtirilgan).

So'nggi yillarda mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirishda sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlari samaradorligini oshirishda hududlarning sanoat salohiyatidan to'laqonli foydalanishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

"- mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslarni jalb qilish, tumanlar (shaharlar) salohiyatini ishga solish va ularning nisbiy ustunliklaridan foydalanish asosida mahalliy sanoatni rivojlantirish «drayverlari» bo'lgan tarmoqlarni aniqlash;

- tarmoqlarning ichki va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, korxonalarini global ishlab chiqarish zanjirlariga jalb qilish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni uchinchi davlatlarga hamkorlikda eksport qilishni yo'lga qo'yish;
- sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan xususiy va xorijiy investitsiyalar hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- "qo'shimcha qiymat zanjirlari"ni kengaytirish, ishlab chiqarish tannarxi va xarajatlarini kamaytirish, tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- kichik sanoat va maxsus iqtisodiy zonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish va faoliyatini muvofiqlashtirish;
- zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda mahalliy sanoat korxonalarini uchun professional kadrlar tayyorlash, trening dasturlaridan keng foydalanish;
- tarmoqlar va hududlarning sanoat salohiyatini oshirish maqsadida tartibga solish muhiti va standartlarni takomillashtirish."

Shuningdek, Yangi O'zbekiston sharoitida respublikaning 24 ta tuman va shaharlarini qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilib, ular to'g'risidagi ma'lumotlar 5-ilovada keltirib o'tildi.

Mazkur davrda mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarning yana bir

muhim jihati bu sun'iy intellekt texnologiyalari asosida innovatsion biznes modellari, mahsulotlar ishlab chiqarish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish, jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejimni ishlab chiqilganligi bo'ldi

Shu bilan birgalikda, mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishda "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha "Sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamlorligini ta'minlash" konsepsiyasi ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi. Konsepsiyaga muvofiq, mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini korxonalarida energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan:

- har bir ishlab chiqarish sexida zaruratga qarab energiya resurslarini hisobga olish tizimini shakllantirish (texnik nazorat hisoblagichlarini o'rnatish);

- ishlab chiqarish korxonalarida belgilangan tartibda energiya auditi o'tkazilishini ta'minlash va uning natijalari asosida ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish (ishlab chiqarish texnologiyasini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish dasturlari) bo'yicha tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- sohaning korxonalarida tashkilotlarida foydalanishda bo'lgan ayrim uskunalar uchun yoqilg'i-energetika resurslari sarfining progressiv me'yorlarini aniqlash va joriy etish;

- energiyani tejash va energiya samaradorligini oshirishning asosiy elementlarini, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish vazifalarini hal etish;

- korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligiga sarf qilinadigan yoqilg'i-energetika resurslarini me'yorlashni tashkil etish.

Yuqorida keltirib o'tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish orqali "yashil" o'sishni ta'minlanishi hisobiga 2022-2030 yillarda sanoat tarmoqlarida elektr energiyasi iste'molining umumiy iste'mol hajmidagi ulushini 26,0 foizdan 20,0 foizgacha kamaytirish bilan birgalikda, hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash darajasini 30,0 foizdan 65,0 foizgacha yetkazish rejalashtirilgan

Jumladan, bugungi kunda mamlakatda mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni jalb qilish asosida yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali global raqobatbardoshlikka ega bo'lgan xalqaro standartlarga mos keladigan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda islohotlarga ustuvorlik qaratilmoqda:

- yagona sanoat siyosatini amalga oshirish hamda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida zamonaviy mexanizmlarni joriy etish;

- hududlarning tabiiy xom ashyo, mehnat resurslarini va «nisbiy ustunliklarini» inobatga olgan holda sanoatni rivojlantirishga turki beradigan yo'nalishlarni belgilash va ularning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

- sanoatning bazaviy tarmoqlari, jumladan neft-gaz, energetika, kimyo, tog'-kon, mashinasozlik sanoatini rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish, diversifikatsiya qilish hamda ularni isloh qilish strategiyalari va dasturlarini ishlab chiqish;

- resurslarning tarmoqlararo va hududlar bo'yicha mutanosib ravishda taqsimlanishini hamda infratuzilmaning o'zaro muvozanatlashgan rivojlanishini ta'minlash;

- tegishli vazirliklar bilan birgalikda energiya resurslari, qimmatbaho va rangli metallar, boshqa strategik resurslarni ishlab chiqarish, ularning iste'mol balansini shakllantirish va monitoring qilish hamda ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish;

- sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini, energiya va boshqa ishlab chiqarish resurslari tejamlorligini oshirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda operatsion samaradorlikni oshirishda zamonaviy mexanizm va yondashuvlarning qo'llanilishi bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish;

- muhim sanoat mahsulotlari bo'yicha bozor kon'yunkturasini o'rganish asosida tegishli mahsulotlar bilan ichki bozor talabini qondirish va narxlar keskin o'zgarishining oldini olish hamda sanoat korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish.

Respublika hududlarida mintaqaviy sanoatlashuvini barqaror rivojlantirish strategiyasi asosida amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida joylashgan korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Shuningdek, so'nggi

yillarda mamlakatda bu turdagi hududlarda joylashgan korxonlar faoliyati samaradorligini oshirish orqali mintaqaviy sanoat ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish jarayonlarini jadallashtirish maqsadida quyidagi imtiyozlar joriy etildi:

- sanoat zonalarida hududida investitsiya loyihalarini joylashtirish bo'yicha qarorlar maxsus iqtisodiy zonalar direksiyalari hamda yagona direksiyalar tomonidan o'n ish kunida qabul qilinadi;

- maxsus iqtisodiy zonalar hududida auksionga chiqarilgan yer maydonlarini ijaraga berish bo'yicha auksionda bir ishtirokchi qatnashgan taqdirda ham savdolar o'tkazilgan hisoblanadi;

- sanoat zonalarida realizatsiya qilinadigan yer uchastkasiga bo'lgan ijara huquqi uchun to'lovni to'liq amalga oshirgan xaridorlarga mazkur ijara huquqini kredit mablag'larini ushbu yer uchastkasida loyihani amalga oshirish uchun yo'naltirish sharti bilan kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yish huquqi beriladi;

- sanoat zonalarida yer maydonlari va bino-inshootlarni elektron onlayn-auksion orqali ijaraga berishda sotib olish to'lovlarini yigirma to'rt oy muddatda bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat etiladi;

- maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarining bojxona imtiyozlari qo'llanilgan holda import qilinadigan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar ro'yxati bo'yicha murojaati (kelgusida ishlab chiqarish va eksport qilinadigan mahsulot birligida ularning sarf normalarini ko'rsatgan holda) maxsus iqtisodiy zonalar direksiyasi tomonidan murojaat kelib tushganidan boshlab yetti ish kunida tasdiqlanadi va elektron ravishda Davlat bojxona qo'mitasiga taqdim etiladi;

- import qilinayotgan xomashyo, materiallar va butlovchi buyumlarning ushbu ro'yxatga muvofiqligi hamda har yarim yilda ro'yxatdagi tovarlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti ustidan nazorat bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tahlillarga ko'ra, Yangi O'zbekiston sharoitida mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirishda maxsus imtiyozli zonalarini tashkil etish asosida hududdagi sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish salohiyatini ular o'rtasida integratsion-kooperatsion munosabatlarni chuqurlashtirish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy dastaklar asosida imtiyozli shartlar, jumladan, soliq imtiyozlari ajratish, investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay-shart-sharoitlar yaratish, tijorat banklari kreditlarini imtiyozli shartlar asosida taklif etish orqali davlatning faol dasturlariga ustuvorlik qaratiladi.

Shu bilan birgalikda, mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishda yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashda texnoparklar va sanoat "xabi" shaklidagi texnoparklarni rivojlantirishga ustuvorlik qaratilmoqda. Yangi O'zbekiston sharoitida mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning yana bir o'ziga xos xususiyati bu "yashil" va raqamli (sun'iy intellekt) texnologiyalar asosida sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarilishini ta'minlash orqali xalqaro standartlarga javob beradiga yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lgan sanoat mahsulotlari bilan aholining mavjud talabini samarali qondirish bo'yicha davlat dasturlarining amal qilishi hisoblanadi.

1-jadval

O'zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari¹

Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi
Soliq imtiyozlari	Yangi sanoat korxonalarini uchun 5-10 yillik imtiyozlar
Davlat subsidiyalari	Infratuzilma va texnologiyalar uchun moliyaviy ko'mak
Kredit va moliyalashtirish	Tijorat banklari orqali arzon kreditlar
Erkin iqtisodiy zonalar	Sarmoyadorlar uchun maxsus imtiyozlar va bojxona yengilliklari
Logistika infratuzilmasini yaxshilash	Yangi avtomagistral va temir yo'l loyihalari

O'rganishlarga ko'ra, Yangi O'zbekiston iqtisodiy islohotlari davrida respublikada mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini yaxshilash, respublika hududlari kesimida investitsion jozibadorlikni kuchaytirish va sanoat mahsulotlari eksporti salohiyatini oshirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birgalikda,

mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan davlat dasturlari (1-jadvalga qarag) quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini berayotganligi aniqlandi:

birinchidan, mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish hisobiga respublika hududlarida yangi sanoat korxonalarini ochilishi mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlarini yaratish hisobiga aholi uchun mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytirmoqda;

ikkinchidan, mintaqaviy sanoatlashuv jarayonlarining ma'lum bir hudud doirasida cheklanib qolmasligi hisobiga respublikaning barcha viloyatlari iqtisodiy rivojlanishi ko'rsatkichlarini o'zaro mutanosiblikda olib borilishi hududlardagi disproporsiyalarni kamaytirgan holda, iqtisodiy tenglikni ta'minlash imkonini bermoqda;

uchinchidan, mintaqaviy sanoat korxonalarining xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatlari ortishi hisobiga sanoat sohasining eksport salohiyati oshib bormoqda.



1-rasm. O'zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish yo'nalishlari uchun xos xususiyatlar²

Jumladan, tadqiqot jarayonida respublikada mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish yo'nalishlari uchun quyidagi xususiyatlar (1-rasmga qarag) xos ekanligi aniqlandi:

- tabiiy va resurs bazasiga asoslangan sanoatlashuv – bunda respublika viloyatlarining tabiiy resurs salohiyati, ularning mavjud hom ashyo bazasi, hamda geografik joylashuvidan kelib chiqib sanoat sohalarni rivojlantirib borilmoqda. Xususan, Navoiy viloyatida kimyo va metallurgiya sanoati, Farg'ona vodiysida mashinasozlik va yengil sanoat, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida esa neft-gaz, kimyo sanoatlari rivojlantirib kelinayotganligi mazkur yo'nalishda mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishga amaliy misol sifatida xizmat qiladi;

- investitsion muhitni yaxshilash, jumladan, erkin iqtisodiy va maxsus sanoat zonalarini tashkil etish – respublika viloyatlari kesimida mintaqaviy sanoatlashuvni rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan erkin iqtisodiy (EIZ) va maxsus sanoat (MSZ) zonalarida (masalan, Navoiy erkin industrial zonasi, Jizzax maxsus sanoat zonasi va h.k.) sanoat korxonalarini faoliyatini rivojlantirish uchun imtiyozli shart-sharoitlar yaratilgan hisoblanadi. Xususan, bu turdagi hududlarda xo'jalik faoliyati olib borayotgan sanoat korxonalarini uchun joriy etilgan soliq va bojxona imtiyozlari, davlat tomonidan infratuzilmani qo'llab-quvvatlanishi mahalliy va xorijiy investorlar uchun hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda;

- innovatsion texnologiyalar va raqamlashtirish asosida sanoatlashuv – bunda mahalliy sanoat ishlab chiqarishini zamonaviylashtirishda ishlab chiqarish jarayonlarida innovatsion loyihalar orqali texnologik siljishlarga erishish bilan birgalikda, raqamli texnologiyalar orqali yuqori ishlab chiqarish samaradorligiga erishishga ustuvorlik qaratilmoqda. Bu orqali mahalliy sanoat ishlab chiqarishida energiya tejamon, ekologik toza texnologiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, sanoat korxonalarini "Sanoat – 4.0" konsepsiyasi standartlariga moslashtirishga erishiladi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Demak, mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni barqaror rivojlanish strategiyasi asosida amalga oshirish yo'nalishlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, amaldagi qonunchilik asosida mazkur yo'nalishdagi islohotlarni tartibga solish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar tahlili ushbu sohaga oid bo'lgan omillarni ajratib olish imkonini berdi. Unga ko'ra, mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

² Muallif tomonidan tuzilgan

mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirish jarayonlari tabiiy resurs, demografik, transport va logistika, investitsion muhit hamda sohadagi davlat siyosati kabi omillarga bog'liq, degan xulosaga keldik. Aniqlangan omillar mamlakatda mintaqaviy sanoatlashuvni shakllantirish omillari sifatida xizmat qilib, 2-jadvalda keltirib o'tilgan qiyosiy tahlilni o'tkazish imkonini berdi.

2-jadval

O'zbekistonda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni shakllantirish omillari bo'yicha tahlil³

Omillar	Ta'sir sohasi	Misollar
Tabiiy resurslar	Ishlab chiqarish sohalari joylashuvi	Navoiy – uran va oltin, Buxoro – neft va gaz
Demografik omillar	Ishchi kuchi mavjudligi	Farg'ona vodiysi – mehnat resurslarining yuqori konsentratsiyasi
Transport va logistika	Sanoat klasterlarining samaradorligi	Toshkent – temir yo'l va avtomagistral markazi
Investitsion muhit	Xorijiy va mahalliy sarmoyalarni jalb qilish	Jizzax va Navoiy erkin iqtisodiy zonalar

Davlat siyosati	Imtiyozlar va rag'batlantirish choralari	Soliq imtiyozlari va kredit subsidiyalari
-----------------	--	---

O'tkazilgan tahlillarga ko'ra, bugungi kunda mamlakatda barqaror rivojlanish strategiyasi asosida mintaqaviy sanoatlashuvni amalga oshirishda quyidagi muammolar mavjud ekanligi aniqlandi:

- infratuzilma yetishmovchiligi – ayrim hududlarda logistika, transport va kommunikatsiya tarmoqlari yetarli darajada rivojlanmaganligi;

- investitsion talabning yetarli darajada qondirilmaganligi – mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilishda ayrim byurokratik, hamda iqtisodiy to'siqlarning mavjudligi;

- mehnat bozorida talab darajasidagi kadrlarning yetishmaligi – zamonaviy sanoat korxonalarini faoliyatini tashkil etish uchun tegishli bilim, malaka, hamda ko'nikmaga ega bo'lgan mutaxassislarining kamligi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References)

1. United Nations. The Sustainable Development Goals Report 2024. – New York: United Nations, 2024.
2. United Nations Industrial Development Organization. Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Industrial Development. – Vienna: UNIDO, 2024.
3. Michael E. Porter. Clusters, Innovation and Regional Competitiveness in the Digital Era. – Harvard Business School Publishing, 2023.
4. World Bank. World Development Report 2024: Infrastructure and Sustainable Growth. – Washington, D.C., 2024.
5. Organisation for Economic Co-operation and Development. Green Growth Indicators 2024. – Paris: OECD Publishing, 2024.
6. Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. O'zbekiston iqtisodiyotini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2023.
7. World Economic Forum. Future of Industrial Development Report 2024. – Geneva: WEF, 2024.
8. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution and Regional Development. – Geneva: WEF Publications, 2023.
9. Asian Development Bank. Uzbekistan: Promoting Sustainable and Inclusive Industrial Development. – Manila: ADB, 2024.
10. Kuldashv Jahongir Qamariddinovich. (2026). O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirishning institutsional va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari. Insurance market of Uzbekistan, 3(2), 67–70. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss2/388

³ Muallif tomonidan tuzilgan